www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

PEDAGOGIK JARAYONDA MUSIQA TARBIYASI VA YOSHLAR O‘RTASIDA MUSIQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Shonazarov Zafar Umirzoqovich

Xalqaro innovatsion universiteti

“Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqola musiqa tarbiyasi orqali yosh avlodni estetik didli va ma’anaviyatli, yuksak fazilatli shaxs sifatida shakllantirish, estetik tarbiyalsh yo‘llari bayon etilgan.

Shuningdek, musiqiy tarbiya vositasida yosh avlodni ma’naviy, badiiy - axloqiy madaniyatini shakllantirish, ularning hissiy-irodaviy sifatlarini, ijodiy mahorati va tashabbuskorligini tarbiyalashdagi o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, musiqiy tarbiya, estetik did, ona allasi, milliy estetik tarbiya, musiqiy idroki, musiqiy did.

МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ И ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация:В статье описаны пути формирования молодого поколения как личности с эстетическим вкусом и духовностью, высокими добродетелями, эстетического воспитания через музыкальное образование.

Также представлены уникальные особенности формирования духовной, художественной и нравственной культуры молодого поколения, их эмоционально-волевых качеств, творческих способностей и инициативы как средства музыкального воспитания.

Ключевые слова: музыка, музыкальное воспитание, эстетический вкус, богиня-мать, национальное эстетическое воспитание, музыкальное восприятие, музыкальный вкус.

Inson kamolotida uning ko‘pchilik narsalarga zarurati tug‘iladi. Deylik, kundalik sharoitidagi zaruriyatlari: u aqliy mehnat bilan shug‘ullangandan keyin dam olib hordiq chiqarmog‘i, odatiy uch mahallik tamaddi qilmog‘i, shu jumladan jismoniy mehnat bilan ham shug‘illanmog‘i lozim. Ulardan tashqari inson aqliy salohiyatini, ma’naviyatini chiniqtirishda va boyitishda ko‘proq o‘qishi, baxsli mavzularda ko‘proq muloqot qilmog‘i kerak. Insonning yana bir ajib qirrali tomoni borki, u ham ozuqaga muhtoj bo‘ladi. Bu uning ruhiy holati, ruhiy tomoni hisoblanadi.Ruhiyat insoning ko‘pgina imkoniyatlarini namoyon bo‘la olishida va o‘ziga bo‘lgan ishonchini ta’minlashida eng muhim tomonlardan biri. Odamning barcha mavhum his tuyg‘ulari uning ruhiyati asosida kelib chiqadi. Ruhiyatning ozuqasi esa bevosita musiqa hisoblanadi.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga ma’suliyatli va sharafli ishni, ya’ni bola tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish yuklatiladi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “**Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi** PQ-112-son qaroriga binoan aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi;

a) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

o‘quvchilarga mazkur qarorga 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi; musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkaziladi; [1] . Bu Qaror ayni o‘z vaqtida qabul qilindi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki hozirgi yoshlar, maktab o‘quvchilari o‘zbek milliy sozlarini yaxshi tanishmaydi, bilishmaydi. Bundan 40-50 yil oldin xonadonlarda dutor, do‘mbira, doira, qashqar rubobi kabi milliy sozlarimiz saqlangan va xonadon sohiblari bu sozlarda kuylar ijro etishgan, qo‘shiqlar kuylashgan. Hozirgi yoshlarimizni milliy soz va milliy musiqamizga e’tiborsiz bo‘layotgani achinarli va tashvishli holat. Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 7 (yetti) nomdagi musiqa sozlarini o‘rgatish belgilandi. Bu sozlarга куйидагилар киради: 1. Dutor. 2. Do‘mbira. 3. Doyra. 4. Tanbur, 5. Rubob.
6. G‘ijjak. 7. Nay. Bu jarayon musiqa o‘qituvchilariga ham qo‘shimcha ma’suliyat yuklaydi, chunki ular kamida 3 ta milliy musiqa sozlarimizni chalishni bilishi va o‘quvchilarga o‘rgatishlari kerak.

Ushbu Qarorda **“madaniyat karvonlar”**ining tashkil etilishi uzoq hududlarda istiqomat qilayotgan aholimiz, ayniqsa yoshlarimizga katta imkoniyatlar eshigini ochdi, chunki ular markazga borib ko‘rish imkoniyatlari kam bo‘lganligi uchun chekka hududlarga ham xalq artistlari, xalq hofizlari, teatr jamoalari, orkestr vax or jamoalari o‘z repertuar va sahna ko‘rinishlari bilan xalqimizga xizmat qilib, ularning madaniy dam olishlari va estetik zavq olishlari uchun katta hissa qo‘shishdi. Ma’lumki, yoshlar tarbiyasi, uning dunyoqarashi, tasavvuri ma’naviy-axloqiy qarashlari tizimi dastlab oilada, so‘ngra maktabgacha ta’lim muassasalarida shakllanadi. Keyinchalik umumiy o‘rta ta’lim va navbatdagi ta’lim turlarida o‘quv tarbiya jarayonida yoshlarning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan rivojlanishi takomillashib boradi. Ayniqsa shaxs kamolatida musiqiy-estetik tarbiyaning o‘rni beqiyosdir, chunki kishi ruhiyatida yuksak hissiyotni o‘stirishda, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, estetik did va go‘zallikni his qilish qobiliyatlarini shakllantiradi, shuningdek ularning estetik idroklarini tarbiyalaydi.

Ta’lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog‘onasi bo‘lgan maktabgacha ta’lim bosqichida ham katta o‘zgarishlar qilish ehtiyoji tug‘ildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarilishi zamirida ularni ma’nan rivojlantirish aynan musiqa mashg‘ulotlarini interaktiv usullar asosida tashkil etilishi bolani aqlan, jismonan va ma’naviy yetuk inson qilib tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Musiqiy-estetik tarbiya “YANGI O‘ZBEKISTON - YANGICHA DUNYOQARASH” kishisining garmonik tarbiyalsh yo‘lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog‘i kerak.

Musiqiy tarbiya, musiqani his qilish aslida bolaning ona vujudida vaqtidayoq shakllana boshlaydi. Ona vujudida shakllanayotgan bola onasi yoqimli musiqa tinglagan vaqtida tinchlanib jim bo‘lib orom oladi. Shuning uchun ham homilador onalarimiz yaxshi kayfiyatda bo‘lishlari,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

yoqimli musiqa eshitishlari, ayniqsa yosh farzand kutayotgan onalar milliy kuylarimiz milliy qo‘shiqlarimizni ko‘proq tinglashlari kerak. Shu tarzda ajabmaski, bizning milliy kuy-qo‘shiqlarimizni sevib eshitadigan, qolaversa sevib ijro etadigan yoshlarimiz ko‘paysa va bizning milliy kuy- qo‘shiqlarimiz yanada ommalashsa va boyisa, yangi ijodkorlar kupaysa degan umiddamiz. Yoshligida ona allasini eshitib katta bo‘lgan bolalarda yomon hislatlar kuzatilmaydi. Bolalarning tarbiyasida aks etayotgan holat o‘zgarishlar oilada olayotgan tarbiyasiga va qanday musiqa eshitishiga ham bog‘liq. Musiqiy tarbiyaning bolalarda erta yoshdan boshlanishi bola qalbida kuchli emotsional tuyg‘u uyg‘otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o‘sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma’naviy boy va boshqa sifatlarini tarbiyalab bo‘lmaydi.

Musiqaga yoshlikdan uyg‘ongan qiziqish kishining keying musiqiy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiyasi vazifalari blan bog‘liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta’sirini hisobga olganda haqqoniy va voqeylikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqiy asarlaridan o ‘rinli foydalanish alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, musiqali obrazlarning shakllanishi asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go‘zalliklarni idrok etishga bevosita bog‘liqdir.

Musiqa mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari yordamida tashkl etish musiqiy darslarning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg‘ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi. Hozirgi pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, musiqa darslarida mul’timediya vositalari yordamida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar samarali bo‘lmoqda. Mazkur vosita yordamida o‘qitishda an’anviy ta’lim usullariga nisbatan o‘rtacha 30 foizgacha vaqtni tejash mumkin, hamda olingan bilimlar o‘quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Shuningdek, musiqiy ta’lim mazmuni, mashg‘ulotlari audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashtirilgan holatda o‘quvchilarga berilsa, musiqiy bilimlarni xotirada saqlab qolish 75 foizga oshishi kuzatilmoqda.

O‘sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qomusiy mutafakkirlarimiz ham alohida urg‘u berib ta’kidlashgan. Kelajak jamiyat a’zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan ana shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Zero, musiqa yosh avlodning ma’naviy, badiiy - axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o‘sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir xalqning o’z musiqa san’ati bor. Boshqa san’at turlari bilan bir qatorda musiqa ham xalq ma’naviy taraqqiyotining ko’zgusi hisoblanadi. Musiqa san’ati asarlarida xalqning hayoti, turli davrlardagi ijtimoiy turmushi, urf-odatlari, din-diyonati, axloqi haqidagi qarashlar o’z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-112-son Qarori.
2. Tursunov R. S. Mannonov. An’anaviy qo‘shiq ijrochiligi uslubiyoti. “Ijod dunyosi” nashriyoti 2003.
3. T.Ye.Solomonova. O`zbek musiqasi tarixi T.1981 y. (11-12-betlar).
4. G. Sharipova “Musiqa va uni o‘qitish metodikas” Toshkent 2006 y.
5. Fitrat "O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi". - T.Fan. 1993 y.